



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASINING QARORI

20 22 y. "26" yanvar № 1

Aloqa va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 3- avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4796- son qarori bilan tasdiqlangan "2020-2025- yillarda O'zbekiston Respublikasi statistikasini rivojlantirishning milliy strategiyasini amalga oshirish bo'yicha yo'l xaritasi"ning 71- bandi ijrosini ta'minlash maqsadida, Davlat statistika qo'mitasi **qaror qiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2021- yil 29- noyabrdagi 51- son qarori bilan tasdiqlangan "Aloqa va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom"ga ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

2. Mazkur qaror tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Rais

B. Begalov

**Aloqa va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari statistikasi
ko'rsatkichlarini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizomga o'zgartirish
va qo'shimchalar kiritish**

1. Uslubiy nizomning 2- bobi, 4- bandi, quyidagi mazmundagi xatboshilar bilan to'ldirilsin:

“Simsiz keng polosali ulanish – W-CDMA, HSDPA, CDMA2000 1xEV-DO, CDMA 2000 1xEV-DV, UMTS va boshqalar kabi simsiz keng polosali ulanish texnologiyalaridan foydalangan holda bir yoki ikki yo'nalishda kamida 256 kbit/s tezlikda ma'lumotlar tarmoqlariga kirish bilan uyali mobil telekommunikatsiya tarmoqlariga ulanish.

Veb-sayt bu – manzil bilan belgilanadigan, egasi bo'lgan va veb-sahifalardan iborat Internet tarmog'idagi joy. Agar tashkilot internet tarmog'ida o'zining kamida bir sahifasiga ega bo'lib, u muntazam ravishda (kamida olti oyda bir marta) yangilanib va e'lon qilib turilsa, statistika kuzatuv maqsadlari uchun tashkilot veb-saytga ega deb hisoblanadi. Shu bilan birga, tashkilot sahifasiga har qanday Internet foydalanuvchisiga kirish imkoni bo'lgan alohida manzili mavjud bo'ladi.

Ruxsat etilgan keng polosali ulanish – kabelli modem, raqamli abonent liniyasi, optik tolali va boshqa qo'zg'almas keng polosali texnologiyalari (masalan, keng polosali sun'iy yo'ldosh interneti, WiMAX simsiz lokal tarmoq va boshqalar) yordamida bir yoki ikki yo'nalishda kamida 256 kbit/s tezlikda ma'lumotlarni uzatish tarmoqlariga ulanish.”

2. Uslubiy nizomning 5- bobi, 12- bandi, yillik davriylikda taqdim etiluvchi hisobot shakllari quyidagilar bilan to'ldirilsin:

“1-kb “Mikrofirma va kichik korxonalarning hisoboti”;

1- notijorat “Notijorat tashkilotning faoliyati to'g'risida hisobot”;

1- nnt “Nodavlat notijorat tashkilotining faoliyati to'g'risida hisobot”.”

3. Uslubiy nizomning 6- bobi nomi quyidagi yangi tahrirda bayon etilsin:

“Alohida statistika ko'rsatkichlarini hisoblash tartibi”.

4. Uslubiy nizomning 6- bobi, 17- bandi, quyidagi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“Veb-saytga ega bo'lgan korxona va tashkilotlarning ulushi bu – har qanday Internet foydalanuvchisi kirishi mumkin bo'lgan alohida veb-sayt manzilga (yoki Internetdagi o'z sahifasiga) ega bo'lgan yuridik shaxslar sonini tegishli holatga, jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy soniga (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) nisbati orqali aniqlanadi.”

5. Mazkur uslubiy nizom quyidagi shaklda 8- bob bilan to'ldirilsin:

“8-bob. Rasmiy statistika ma'lumotlarini tarqatish

19. Har yili tasdiqlanadigan Statistika dasturiga muvofiq, aloqa va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari statistikasi bo'yicha rasmiy statistika ma'lumotlari quyidagi tartibda shakllantiriladi va tarqatiladi:

davriy statistika nashrlari: statistika byulleteni (chop etish muddati – har chorakda hisobot davridan keyingi 40- kuni, yillik – may oyida);

“O'zbekistonda axborotlashgan jamiyat rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlari” statistika to'plami yilda bir marta taqdim etiladi. Chop etish muddati – oktabr;

statistika ma'lumotlari to'plamidagi bo'limlar: “O'zbekiston hududlarining yillik statistik to'plami” (chop etish muddati – avgust), “O'zbekiston raqamlarda” (chop etish muddati – sentabr), “O'zbekistonda ijtimoiy rivojlanish va turmush darajasi” (chop etish muddati – sentabr), “O'zbekistonda transport va aloqa” (chop etish muddati – oktabr), “Yillik statistik to'plam” (chop etish muddati – dekabr).

Bundan tashqari, rasmiy statistika ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb-saytida (<http://stat.uz/>) jadvallar ko'rinishida shakllantiriladi va e'lon qilinadi.

Rasmiy statistika ma'lumotlari foydalanuvchilarga yuridik va jismoniy shaxslarning so'rovlariga asosan, O'zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida”gi va “Rasmiy statistika to'g'risida”gi qonunlariga muvofiq taqdim etiladi.”

6. “8- bob” tegishlincha “9- bob” deb hisoblansin.

7. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatining 14- bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Tarmoqlar bo'yicha metodologiyani takomillashtirish” Rosstat.
<https://rosstat.gov.ru/>”